[8]. Седакова О. Искусство перевода. Несколько замечаний. Лекция, прочитанная в Британском музее. https://www.olgasedakova.com/translations

[9]. Тарнаева Л.П. Лингвокультурологическая компетентность переводчика в сфере делового общения. Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С.Пушкина, 2010, с. 92–98.

[10]. Емельянова Я.Б. Лингвострановедческая компетенция переводчика: теория и практика. Монография, Нижний Новгород, 2010, 202 с.

[11]. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие, М., ЭТС, 2001, 424 с.

Tuxtasinova Nigina Bashirovna (O‘zbekiston Milliy universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; e-mail:zolushkax@mail.ru)

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MUQADDAS QADAMJOLAR, ZIYORATGOHLAR VA MADANIY YODGORLIKLAR NOMLARI KATALOGINI TUZISH TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xorij olimlari tomonidan yaratilgan agiografik, islomiy atamalar, diniy istilohlar kabi izohli va tarjima lug‘atlari tadqiq etildi. Terminologik lug‘atlar ishlab chiqishda faqatgina lingvistik bilimlarning o‘zi yetarli emas, ekstralingvistik bilimlar, qomusiy bilimlar birlamchi omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *agioterminlar, diniy terminlar, islomiy atamalar, agiologiya, lug‘at, tamoyil.*

ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ КАТАЛОГА НАЗВАНИЙ СВЯТЫНЬ, ПАЛОМНИЧЕСТВА И ПАМЯТНИКОВ КУЛЬТУРЫ НА ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье исследуются толковые и переводные словари агиографических, исламских терминов, религиозных терминов, созданные зарубежными учеными. При разработке терминологических словарей одних лишь лингвистических знаний недостаточно, экстралингвистические знания, энциклопедические знания являются основным фактором.*

Ключевые слова: *агиотермины, религиозные термины, исламские термины, агиология, словарь, принцип.*

PRINCIPLES FOR CREATING A CATALOG OF NAMES OF SAINTS, PILGRIMAGES AND CULTURAL MONUMENTS IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *This article examines the explanatory and translated dictionaries of agiographic, Islamic terms, religious terms created by foreign scientists. In the development of terminological dictionaries, linguistic knowledge alone is not enough, extralinguistic knowledge, encyclopedic knowledge is the primary factor.*

Key words: *hagiology, religious terms, Islamic terms, dictionary, principle.*

Mavzuning dolzarbligi. Umumjahon globalizatsiya gibrid madaniyatlarning paydo bo‘lishi, milliy an’analarning qisman o‘zgarishi, millatlararo hamkorlikning kuchayishi natijasida tillimizga turli xil atamalar, o‘zlashmalar kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa lug‘atshunoslar oldiga zamonaviy lug‘atlar avlodini yaratish, o‘zlashmalarni kiritish va yangilash vazifasini qo‘ymoqda. Bu borada M.Umarxo‘jayevning ta’kidini o‘rinli deb hisoblaymiz: «Lug‘at doim zamonga hamnafas tarzda mukammallashib borishi zarur. Biroq lug‘atlar qanchalik zamonaviy bo‘lmasin, davrdan ma’lum darajada orqaga qolib, so‘zlar hamda ular ifodalagan narsa va hodisalar o‘rtasidagi u yoki bu hodisalar o‘rtasidagi u yoki bu o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangicha munosabatlarni talab qiladi» [10:28-b.].

Zero, har qanday milliy tilning asosiy so‘z boyligi shu tilning tarixan rivojlanishi hamda muayyan lug‘atini yaratish chog‘idagi turg‘un holatini lisoniy tizim va nutqiy faoliyat birligida ifoda qiluvchi katta hajmli filologik lug‘atlar ulkan madaniy ahamiyatga molik ishlar sifatida baholashga loyiqdir. Bugungi kunda tadqiqotlar fanlararo uyg‘unlikda olib borilmoqda, chunki har bir yo‘nalish o‘zaro fanlar va sohalararo aloqadorlik kasb etmoqda. Tarjimashunoslik, badiiy tarjima, adabiyotshunoslik fanlari ham bevosita leksikografiya sohasi bilan chambarchas bog‘liq. Binobarin, leksikografiyaning dolzarb amaliy vazifalaridan biri bu professional tarjimonlar va tarjima bilan kundalik hayotida doimo to‘qnashadigan ko‘p sonli mutaxassislar uchun tarjima lug‘atlarini yetkazib berishdir.

Zamonaviy ikki tilli tarjima lug‘atlari tegishli adabiy tillarning lug‘at tarkibini har taraflama boyitib beradi. Jumladan, badiiy hamda ilmiy ommabop adabiyotlarda keng qo‘llaniladigan ilm-fan texnika, sportning va boshqa sohalarga oid ko‘p sonli atamalar, terminlar va boshqa madaniyat vakillarining milliyligiga dahldor leksemalarni tarjima lug‘atini yaratish doimo dolzarblik kasb etgan.

Ishning maqsadi. Tadqiqot doirasida mazkur yo‘nalishlarda olib borilgan ishlar o‘rganildi va shu narsaga amin bo‘lindiki, xorij olimlari agioterminlar, diniy terminlar, islomiy atamalar kabi bir qancha lug‘atlarning zamonaviy avlodini yaratib ulgurishgan hamda mazkur sohaning nazariy masalalariga bag‘ish-

langan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular tadqiqotlarini birma-bir tahlilga tortib, kerakli o‘rinlarda o‘zimizning ilmiy munosabatimiz berildi.

Tadqiqotning metodi. Fransuz va o‘zbek tillarida muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar va madaniy yodgorliklar nomlari katalogini tuzish tamoyillarini aniqlash. Tadqiqot doirasida mazkur yo‘nalishlarda olib borilgan ishlar o‘rganildi va shu narsaga amin bo‘lindiki, xorij olimlari agioterminlar, diniy terminlar, islomiy atamalar kabi bir qancha lug‘atlarning zamonaviy avlodini yaratib ulgurishgan hamda mazkur sohaning nazariy masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlarini birma-bir tahlilga tortib, kerakli o‘rinlarda o‘zimizning ilmiy munosabatimizni berishni lozim topdik.

S.Ragasov islom dini va islom madaniyati bilan aloqador bo‘lgan so‘zlar va birikmalarning leksikografik tavsifini rus tili lug‘atlarida berilishini, ularning tasnifining adekvatligi, ma’lumotlarning faktlarga asoslanganligini ko‘rib chiqqan [7;240-b.]. Shuningdek, zamonaviy rus nutqida va ommaviy axborot vositalari matnlarida uchragan bunday atamalarni berishda uchragan noqisliklar matnlar tahlili orqali ochib berib, mazkur sohada mavjud muammoni qaysidir ma’noda yechishga o‘z hissasini qo‘shgan.

S.Ragasov diniy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, lug‘atlar, internet saytlaridagi islomiy mazmundagi matnlarda diniy istilohlarni berilishini o‘rganib, ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkinligini taklif qiladi.

– islomiy liboslar: abaya, burka, djilbab;

– ta’limotning dogmalari, kanonlari, mavhum kategoriyalari bilan bog‘liq atamalar (imam, shaxada, barakat);

– oliy mavjudot nomlari: Allax, djinn, iblis;

– islom huquqlari va siyosati bilan bog‘liq terminlar: idjma, idjtixad, kiyas;

– marosimlar, bayramlar, udumlar: zikr, namaz, salyat;

– ibodatxonalar, ibodatjoylar, ziyoratgohlar bilan bog‘liq terminlar: mechet, minaret, Mekka;

– islomiy kitoblar, aqidalar: Koran, shariat, Sunna;

– harakat va ishlarning xususiyatlari bilan bog‘liq tushunchalarning nomi: xalyal, xaram, mubax;

– oy nomlari: Ramadan, Shavval, Muxarram;

– ullamolarning nomlari, unvonlari: ulama, ayatolla, dervesh;

– maktab, birlashma nomlari: islom va musulmon dini tarafdorlarining nomlari: vird, djadidizm, djamaat;

– payg‘ambarlarning nomlari, din peshvolari: Muxammad, Aysha, Xatidja;

– diniy murojaatlar, salomlar, salovatlar: Amin, Allaxu Akbar, as salyamu-aleykum;

– iqtisodiy atamalar, soliq, sadaqa nomlari: zakyat, maxr, sadaqa;

– boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar, dinsizlar, budparastlarning belgilari: kyafir, gyaur, zandaka;

– jannat va jahannam nomlari: djanna, djaxannam, sirat;

– islom ilmiga oid atamalar: islomshunoslik, sharqshunoslik, quronshunoslik;

– jargon nominatsiyalari: shaxid-taksi, djixad-povozka, zamotashka.

Olim islomiy atamalarni turli xil lug‘atlarda berilishini tahlil qilar ekan, ba’zi lug‘atlarda bunday atamalar sharhida turli xil yondashuvlar yoki bo‘lmasa, noadekvat sharhlar uchrashini keskin tanqid qiladi. Iq-tibosda keltirilgan lug‘atlarda islomiy atamalarning berilishini o‘rganar ekan, ayniqsa, unda tarixiy asoslar, faktlar noadekvat ifoda etilganligini, ya’ni, ramazon, quron, machit, jihot va boshqa atamalarning izohlari orqali ochib beradi. Masalan, bir lug‘atda «Ro‘za» bayramidan 70 kun o‘tgandan so‘ng, bayram qilishi ay-tilsa, ikkinchi lug‘atda Qurbon hayiti Ramazon bilan birlashtiriladi va ro‘za 40 kun davom etadi 29 kun ro‘za tutiladi, degan chalkashliklar kuzatiladi [7;240-b.].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Demak, tarjimon o‘zbek tilidan chet tiliga mazkur sohadagi kontekstni tarjima qilishda xuddi yuqorida berilgan lug‘atlardagi sharhlardan foydalansa, islomiy atamalar izohini noto‘g‘ri berishiga olib keladi. Chunki matnda islomiy atamalarni berishda tarjima tilida uning muqobil bo‘lmasa, unda sahifa iqtibosida yoki matn ichida izohlab o‘tiladi. Bu esa lug‘atga asoslangan tarjimonning asliyatdagi mazmunini tarjima tilida noadekvat berishiga olib keladi.

X.K.Guseynova darg tilidagi diniy terminlarni o‘rganishda ularni arxaik, o‘zlashma so‘zlar, neologizmlardan farqi va o‘zaro ta'siriga e’tibor qaratadi. U dogistontilshunosligida va umumiy tilshunoslikda agiografik terminlarning ahamiyati, tarixiy matnlarda ularning etimologik kelib chiqishi va yasalishi, ularning leksik, semantik, fonetik, morfologik jihatdan moslashuvlarini V.M.Aristov, I.I.Revzina, S.M.Xaydakov, R.A.Budagov, S.I.Omarov, S.S.Efendieva, T.Alidjanov, D.Suleymanovlarning ilmiy tadqiqotlariga asoslanib olib boradi [1;17-b.].

Shuningdek, S.N.Abdullayevning ruscha-dargcha lug‘at (1950), Sh.A.Isayevaning ruscha-dargcha lug‘at (1992), X.A.Yusupovaning ruscha-dargcha lug‘at, N.I.Stoyanovaning darg tilidagi arab o‘zlashmalari lug‘ati (2005), M.R.Bagomedovaning darg tilidagi atoqli otlar lug‘atlarini (2006) leksikografik tuzilishini tahlil qiladi. Tadqiqot davomida 340 dan ortiq agiografik terminlarni ko‘rib chiqadi va quyidagi guruhlarga ajratadi:

1) muqaddas nomlar, ya’ni, «allax-bog», «jabragil-jabroil», «arxangel»-«ivarak-prorok», «malaik-angel», «ryaxim-miloserdniy», «tyagala-vsevishniy»va boshqalar;

2) sovuq terminlar o‘ta yuqori kuchlarni anglatuvchi terminlar: «izrail-angel smerti», «giprit-demon», «zloy-dux», «jind-ilbis, chyort», «malikulmulk-malakulmavt-angel smerti», «shaytan-chyort»va boshqalar;

3) oxirot marosimlari bilan bog‘liq terminlar: «aljana-ray, «axirat-zagrobniy mir», «axirzaman(a)-kones sveta», «jag'annab ‘ad-kiyama-kones sveta», «sirat-most nad preispodney»va boshqalar;

4) murojaat terminlari: «vird-zapoved», «g‘idayat-pravedniy put», «din-vera, religiya», «ijaza-razreshenie, pozvolenie», «iman-vera, verovanie», «kaparat-iskuplenie», «kashpu-tkrovenie»va boshqalar;

5) ruhoniylar va ular bilan bog‘liq atamalar: «pravednik-g‘azi», «bores za veru-dajjal (dajal)», «antixrist-ziyaratchi-palomnik», «imam-duxovniy nastavnik» va boshqalar;

6) diniy marosimlar va u bilan bog‘liq terminlar: «azan-priziv na molitvu», «akbar-priziv na molitvu», «balga-molitva», «vitru-vitr», «gumra-umra (maliy xadj)», «dugya-molitva»va boshqalar;

7) diniy e’tiqodlar va aqidalar bilan bog‘liq terminlar: «adabdesh- selomudrie», «validesh-pravednost'», «gyadlu-zeg‘a nravi, normi», «validesh-pravednost'», «svyatost», «zyakat (zakat)-pojertvovanie» va boshqalar;

9) diniy oyatlar: «ayat-stix Korana», «zabur-Psaltir», «injil-Evangelie», «tajvid-chtenie Korana naraspev», «kiraat-izuchenie Korana», «maxraj-chtenie Korana» va boshqalar;

10) diniy so‘zlarni anglatuvchi terminlar: «astag‘pirullag‘-boje oxrani», «valla‘'-ey-bogu», «klyanus-kismat», «pal-gadanie», «pitni-iskushenie»va boshqalar.

Shuningdek, o‘zlashgan diniy terminlar, ularni o‘zlashish hodisasi, fonetik va morfologik o‘zgarishlarni aniqlaydi hamda bu sohada yaratilgan lug‘atlarni tahlil qiladi. Olim diniy xos so‘zlarni guruhlaydi hamda ularning har birini qator misollar bilan boyitadi.

Y.N.Mixaylova rus tilining izohli lug‘atlarida o‘z aksini topgan diniy provoslav leksikasini turli xil davrlarda berilgan izohlarini tahlil qiladi [5:12-b.]. U mazkur yo‘nalishdagi atamlarni «religionimlar»deb nomlaydi va ularning lug‘atlardagi sharhida denotativ va pragmatik ma'nolarini berishda semantik ma’noning o‘zgarishini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, Y.Mixaylova agionimlarning rus provaslav lug‘atlarida berilishini o‘rganib, ularni to‘rt guruhga ajratadi, ya’ni:

▪birinchi guruhga kiritilgan lug‘atlar maxsus yo‘nalishdagi adresantlarga, ya’ni provoslavlarga mo‘ljallangan. Ushbu lug‘atlarga G.Dyachenkoning 1898-yilda nashr qilingan va 1993-yilda qayta nashrdan chiqqan «Polniy serkovno-slovyanskiy slovar»i tahlilga tortilgan;

▪ikkinchi guruhga sovet tuzumi davrida chop etilgan ko‘proq ateizm tashviqotchilariga qaratilgan lug‘atlar, jumladan, M.P.Navikovning 1975-yilda nashr qilingan «Karmanniy slovar ateista» lug‘atlarini kiritadi;

▪uchinchi yo‘nalishdagi lug‘atlar toifasiga barchaga kitobxonlarga mo‘ljallangan va ateistik yo‘nalishdagi terminlar aks etgan lug‘atlar kiritilgan;

▪to‘rtinchi yo‘nalishdagi lug‘atlar dinga xolis munosabatda bo‘lgan barcha foydalanuvchilarga mo‘ljallangan lug‘atlar kiritilgan, masalan, S.I.Ojegov N.L.Shvedovaning (1997) XX asr oxirida chop etilgan «Rus tilining izohli lug‘at»i, G.N.Sklyarevsk (2000), «Slovar provaslavnoy serkovnoy kulturi» kabi lug‘atlar leksikografik jihatdan tahlilga tortilgan [5;16–17-b.].

Olim o‘rganilgan materiallar asosida diniy terminlarning yadrosini aniqlaydi va uni ikki katta qismdan iboratligini ko‘rsatadi, ya’ni birinchi «Din zonasi» va «Cherkov zonasi». Din zonasiga din bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsa, voqea va hodisalar kiritilsa, cherkov zonasiga esa faqat mazkur yo‘nalishdagi obyektlar, predmetlar va hodisalar kiritilgan.

2020-yilda Islom ensiklopediyasi O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi nashriyotida nashrdan chiqqan bo‘lib, unda muqaddas qadamjolar, mashhur madrasa, masjid va diniy maskanlar, shuningdek, buyuk islom ravnaqga hissa qo‘shgan buyuk shaxslar, allomalar, aziz avliyo va anbiyolar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritilgan [4;495-b.].

Mazkur kitobning so‘zboshisida quyidagi fikr bildirilgan: «O‘zbek tilidagi ushbu «Islom ensiklopediyasi»ning mazmun mundarijasini beligilashda jahon qomuschiligi an’analaridan, mazkur sohadagi milliy

tajribadan, mavjud nazariy materiallardan ijodiy foydalanishga harakat qilindi. Shu bilan birga, ushbu nashr o‘zining mazmun-mohiyati hamda xususiyatlari bilan bundan oldin yaratilgan ensiklopediyalardan tubdan farq qiladi. U ma’lum ma’noda, umuman islom qomusshunosligining o‘ziga kvintessensiyasi bo‘lishi nazarda tutilmoqa».

Mazkur ensiklopediyani sinchiklab o‘rgandik, haqiqatdan ham, ensiklopediyada dunyoga mashhur islomshunoslar, jumladan, G‘arb olimlarining tadqiqotlari, hayoti va ijodi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, una 50 mingga yaqin maqola, atama, so‘z birikmalari, xarita hamda jadvallar ham o‘z aksini topgan.

Muxtorxon Umarxo‘jayevning «Diniy atamalar va iboralar lug‘ati” (ommabop qisqacha lug‘at) ham mazkur sohada erishilgan yutuqlarda biri hisoblanadi. Mazkur kitobga so‘zboshi yozgan Abdulhay Sobirov ta’kidlaganidek, «Diniy atamalar ming yillar davomida tildan tilga ko‘chib, sayqal topib, og‘zaki so‘zlashuv tilida daryodek jo‘shib-toshib ishlatilib kelgan bo‘lsa-da, ularni to‘plab, unifikatsiyalab, lug‘at tuzishga hech kim jazm qila olmagan. Buning uchun muallif nafaqat tilshunoslik ilmidan, balki milliy qadriyatlarimizdan, tariximizdan, urf-odatlarimizdan yaxshi xabardor bo‘lmog‘i, har bir so‘zga qalb ko‘zi bilan qarab, undagi mohiyatni dildan his qilmog‘i lozim» [10;28-b.].

Zero, terminologik lug‘atlar ishlab chiqishda faqatgina lingvistik bilimlarning o‘zi yetarli emas, ekstarlingvistik, qomusiy bilimlar birlamchi omil hisoblanadi. M.O‘marxo‘jayev tomonidan ishlab chiqilgan lug‘at juda puxta va ilmiy asoslarga tayangan holda ishlab chiqilgan. Ayniqsa, atamalarga izoh berilganda Abdulhay Sobirov ta’kidlaganidek, ularni mustahkamlovchi misollar ulug‘ zotlarning, ya’ni, Imom al-Buxoriy, Imom al-Termiziy, Alisher Navoiy, Imom G‘azzoliy, Nasoriddin Buxoriddin Rabg‘uziy, Ahmad Yassaviy, Sidqiy Xondayliqiy kabi alomalarning noyob asarlaridan olinganligi lug‘atning ham nazariy ham amaliy qiymatini oshishiga olib kelgan. Masalan:

Ilmi laduniy – Bandaga olloh taolo huzuridan bevosita ilhom orqali bildiriladigan ilm. Tong otg‘och, haq subhanahu taolo oning ko‘ngliga ilmi laduniy eshikni ochmish (Alisher Navoiy).

Jamarot – hojilar shaytonga tosh otadigan joy nomi.

Hayitning brinchi kuni yetti dona tosh Jamarayi Aqaba, deb nomlanadigan joyda otiladi. Uni Jamarayi Kubro, Jamarayi Uxro deb ham ataladi kabi izohlar [6;242-b.].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xorij olimlari diniy, islomiy, agiologiya, agiografiya sohasidagi terminlarning nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqiotlar olib borganlar. Shuningdek, leksikografik muammolari yechimiga qaratilgan turli xil atamalar lug‘atini yaratganlar. To‘g‘ri, ular tomonidan yaratilgan barcha lug‘atlarni mukammal lug‘atlar sirasiga kirita olmaymiz. Chunki ularda agiografik atamalar lug‘atini tuzishda uchun materallar tanlashda xronologik jihatida (tarixiy nuqtayi nazar asosida) noadekvatliklar kuzatilgan, adabiy til normasiga e’tibor qaratilmaganligi yoki funksional va stilistik jahatini farqlash borasida yetarlicha kamchiliklar mavjud. Biroq lug‘atlar, asarlar qayta-qayta chop etilishidan asosiy maqsad yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni tuzatish, mukammal asarlar yaratishdan iborat.

Mazkur maqolada, asosan, xorij olimlar tomonidan yaratilgan agiografik, islomiy atamalar, diniy istilohlar kabi izohli va tarjima lug‘atlarini ko‘rib chiqdik. Ammo shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek leksikografiiyasida diniy atamalarning izohli yoki ommabop qisqacha lug‘atlari yaratilgan bo‘lsa-da, bunday terminlarning ikki va ko‘p tilli tarjima lug‘atlari yaratilmagani biz tomondan amalga oshirilgan ishning amaliy ahamiyati va zaruratini belgilab berdi. Bunday tipdagi lug‘atlarni o‘rganishdan maqsad o‘zbek tilida ikki va ko‘p tilli agiografik yoki islomiy atamlarning tarjima lug‘atlarini ishlab chiqishga asos va material bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Гусейнова Х.К. Религиозная терминология в даргинском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук, Махачкала, 2018.

(2). Дьяченко Г.М. Полный церковно-славянский словарь. Москва, издательский отдел Московского Патриархата, 1993.

(3). Живов Д.В. Святость. Краткий словарь агиографических терминов. 34 с.

(4). Islom ensiklopediyasi. Toshkent, O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi nashriyoti, 2020.

(5). Михайлова Ю.Н. Религиозная православная лексика и ее судьба (по данным толковых словарей русского языка). Автореф. диссс… канд. филол. наук, Екатеринбург, 2004.

6. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. 2, Тошкент, 2008, 242 бет.

(7). Рагасов С. Слова исламской тематики в словарях русского языка. “Вестник КГУ”, № 4, 2017.

(8). Сафарова Г. Словарные основы Хатирчинской топонимии. “Вестник науки и образования”, № 5, (83), часть 1, 2020.

(9). Umarxo‘jayev M. Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug‘at. Toshkent, 2016.

(10). Umarxo‘jayev M. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 2010.
(11). Bruno Rochette. La traduction de textes religieux dans l’Egypte gréco romain. Revue international et le pluridisciplinaire de religion grecque antique. Varia, 1995, 8.

Мирахмедова Шохида Нусратиллоевна (Чирчикский государственный педагогический университет, Факультет гуманитарных наук, преподаватель кафедры «Межфакультетские общественные науки»)

О ФАРИДУДДИНЕ АТТАРЕ И ЕГО РАБОТЕ “ТАЗКИРАТ УЛЬ-АВЛИЯ”

Аннотация. *В статье рассматривается жизненный путь Фаридуддина Аттара, его творчество, вершина его художественного творчества, а также уникальное и известное произведение “Тазкират ул-Аулийа”, написанное в прозе, в котором содержатся сведения о шейхах суфизма, обсуждаются святые, их откровения и чудеса, различные мистические термины, шариат, тарикат, их взгляды на просветление, доверие, удовлетворенность, терпение и благодарность.*

Ключевые слова: *“Тазкират уль-Аулийа”, мутаваккиль и тазкиранави, шейхи суфизма, шариат, тарикат, просвещение, доверие, согласие, терпение, благодарность, поэзия, притчи и поговорки, карама, макамат, необычный обычай, наука, математика, фикх.*

Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti “Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi)

FARIDUDDIN ATTOR VA UNING “TAZKIRAT UL-AVLIYO” ASARI HAQIDA

Annotatsiya. *Maqolada Fariduddin Attorning hayot yo‘li, asarlari tahlili, badiiy ijodini yuksakligi, “Tazkirat ul-avliyo” ushbu asari nasrda bitilgan yagona va mashhur asar bo‘lib, unda tasavvuf shayxlari, avliyoullohlarning hayoti, kashfu karomatlari, turli tasavvufiy istilohlar shariat, tariqat, ma’rifat, tavakkul, rizo, sabr, shukur kabilarga ularning qarashlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Tazkirat ul-avliyo”, mutavvakil va tazkiranavis, tasavvuf shayxlari, shariat, tariqat, ma’rifat, tavakkul, rizo, sabr, shukur, she’riyat, masal va naqllar, karomat, maqomat, holat horiqi odat, kashf-u riyoziyot, fiqh.*

Mirakhmedova Shokhida Nusratilloyevna (Chirchik State Pedagogical University Faculty of Humanities Teacher of the Department of “Interfaculty Social Sciences”)

ABOUT FARIDUDDIN ATTOR AND HIS WORK “TAZKIRAT UL-AVLIYO”

Annotation. *The article discusses the life path of Fariduddin Attar, analysis of his works, the height of his artistic creativity, the unique and famous work “Tazkirat ul-Awliya” written in prose, which deals with the lives of the sheikhs of Sufism, the lives of the saints, their revelations and miracles, and their views on various mystical terms such as Sharia, Tariqat, Enlightenment, Tawakkul, Riza, Sabr, and Shuku.*

Keywords: *“Tazkirat ul-Awliya”, Mutawakkul and tazkiranavis, sheikhs of Sufism, Sharia, Tariqat, Enlightenment, Tawakkul, Riza, Sabr, Shukur, poetry, parables and sayings, miracle, maqamat, unusual custom, revelation and mathematics, fikx.*

Kirish. (Inroduction) Shayx Fariduddin Attor–Sharq tasavvuf adabiyotining buyuk siymosi, bir yelkasida Mavlono Jaloliddin Rumiydek, ikkinchi yelkasida Mir Alisher Navoiydek ustozlarni tikka ko‘tarolgan mo‘jizakor adib, daho ijodkor. Olti yashar Alisher “Qush tili”ni o‘qib, ne ahvolga tushgani sizga ma’lum. Buni qarangki, o‘n ikki yoshli Jaloliddin ham Attor qalamiga mansub “Asrornoma”ni o‘qib, ayni ahvolni boshdan kechirgan va umr bo‘yi shu kitobning shavqi, sururi bilan yashagan.

Buyuk shoir, mutaffakir va tazkiranavis F.Attor (Muhammad Abu Bakr ibn Ibrohim 1145–1230), u o‘z ijodi bilan fors tilidagi she’riyat, tasvvuf adabiyoti, tazkiranavislikka katta hissa qo‘shgan. U Nishopur Eron viloyatining Kadakon qishlog‘ida attor va tabib oilasida tug‘ilib o‘sdi. Otasi dorishunos do‘kondor, o‘z zamonasining obro‘-e’tiborli tabiblari bilan aloqada bo‘lgan. Fariddudin Mashhad va Nishopur madrasalarida tahsil oladi. Qur’on fiqh va hadisdan tashqari, nujum, tabobat, falsafa, mantiq kabi bilimlarni ham egalladi. Otasi kabi dorifrushlik va attorlik kabi sohalarga ham qiziqadi. Yoshligidan Fariduddin so‘fiylar hayoti va faoliyatiga qiziqib, keyinchalik, tasavvuf ta’limotiga bag‘ishlab qator masnaviylar yaratgan. Badiiy ijod bilan ham mashg‘ul bo‘ladi. Uning vafoti adabiyotlarda turlicha keltirib o‘tilgan. Xususan, yirik tasavvufshunos Knish ma’lumotiga ko‘ra, uning maqbarasi Alisher Navoiy tomonidan qurilgan. Unda vafot tarixi 586-hijriy, milodiy 1190-yil ko‘rsatib o‘tilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review) Attorning “Bulbulnoma”, “Ushturnoma” asarlari ramziy-allegorik timsollar asosida yozilgan. “Javhar uz-zot”, “Xayloj”, “Asrornoma”, “Sharh ul-qalb”, “Musibatnoma” kabi dostonlari bevosita muhokama-mushohada, fikriy-shuuriy bayonlar tarzida bitilgan. Bundan tashqari, “Xusravnoma”ga o‘xshab majoziy ishqni kuylagan romantik-sarguzasht asari